

ITALYAN TILINI O'RGANISHDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR VA  
ULARNING SAMARALI YECHIMLARI

**Qo'chqorova E'zoza Ikramdjan qizi**

O'zDJTU, Tarjimonlik fakulteti 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: **Otaxonova Munisaxon Janibek qizi**

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada italyan tilini o'rganish jarayoni, unda uchraydigan asosiy qiyinchiliklar va ularni yengishning samarali usullari tahlil qilinadi. Xususan, talaffuz muammolari, jins va son moslashuvi va fe'llarni tushirish bilan bog'liq murakkabliklar alohida ko'rib chiqiladi. Nazariy tahlil bilan bir qatorda amaliy kuzatish elementlari ham yoritiladi. Shuningdek, maqolada mazkur muammolarni bartaraf etishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar va interaktiv metodlar haqida ham ma'lumotlar beriladi.

**Kalit so'zlar:** italyan tili, til o'rganishdagi muammolar, grammatika, jins va son moslashuvi, fe'llar va zamonlar, talaffuz muammolari, yechimlar, interaktiv metodlar, audio-lingual metod, dictogloss metod, pedagogik yondashuvlar.

ABSTRACT

This article analyzes the process of learning the Italian language, the main challenges encountered, and effective strategies for overcoming them. In particular, pronunciation difficulties, gender and number agreement, and verb conjugation are examined separately. In addition to theoretical analysis, elements of practical observation are presented. The article also provides information on modern pedagogical approaches and interactive methods that help address these challenges.

**Keywords:** Italian language, language learning difficulties, grammar, gender and number agreement, verb tenses and conjugation, pronunciation problems, solutions, interactive methods, audio-lingual method, dictogloss method, pedagogical approaches

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется процесс изучения итальянского языка, основные возникающие при этом трудности и эффективные методы их преодоления. В частности, отдельно рассматриваются проблемы произношения, согласование рода и числа, а также спряжение глаголов. Наряду с теоретическим анализом представлены элементы практических наблюдений. Кроме того, в статье даются сведения о современных педагогических подходах и интерактивных методах, способствующих преодолению указанных трудностей.

**Ключевые слова:** итальянский язык, трудности изучения языка, грамматика, согласование рода и числа, времена и спряжение глаголов, проблемы произношения, решения, интерактивные методы, аудио-лингвальный метод, метод диктоглосса, педагогические подходы

**Kirish.** Bugungi kunda chet tillarini o'rganish yoshlar orasida tobora ommalashib bormoqda. Ayniqsa, italyan tili o'zining go'zalligi va madaniy boyligi bilan ko'plab insonlarni o'ziga jalb qiladi. Biroq, har qanday yangi tilni o'rganish jarayonida turli qiyinchiliklar uchrashi tabiiy. Italyan tilini o'rganish jarayonida, aynisa boshlang'ich boshqichda o'quvchilar bir qator grammatik va talaffuz bilan bog'liq muammolarga duch kelishlari mumkin.

**Grammatik muammolar va jins va son moslashuvi.** Italyan tilini o'rganish jarayonida uchraydigan eng asosiy muammolardan biri grammatik qoidalarni to'g'ri qo'llash bilan bog'liqdir. Xususan, jins va sonlarni bir-biriga moslashtirish ko'plab o'quvchilar uchun qiyinchilik tug'diradi. Italyan tilida har bir ot va sifat ma'lum bir jins (maschile – erkak yoki femminile – ayol) hamda son (birlik yoki ko'plik) ga ega bo'ladi va sifatlar doimo otga moslashishi talab etiladi. Masalan, ragazza bella (chiroyli qiz,) birikmasida ot va sifat birlik shaklida “-a” harfi (qo'shimchasi) orqali ifodalangan. Ko'plik shaklida esa yana bir o'zgarish yuz beradi: ragazze belle (chiroyli qizlar), bunda ot ham sifat ham “-e” harfi orqali ko'plikni bildiradi. Ingliz va o'zbek tillarida bunday jinsga bog'liqlik kam yoki umuman mavjud bo'lmaganligi sababli o'rganuvchilar ko'pincha avtomatik tarzda xatoga yo'l qo'yadilar. Misol uchun, ular ragazza bello shaklini qo'llashlari mumkin, holbuki to'g'ri variant ragazza bella hisoblanadi. O'quvchilarning chalkashishiga asosiy sabab – lug'at birliklarini alohida va kontekstsiz yod olishidir. Ya'ni ular so'zlarni (ragazza- qiz, bello- chiroyli) tarzida eslab qolib, nutqda ularni moslashtirmasdan qo'llaydilar. Natijada, so'zlarning noto'g'ri moslashtirilishi jumlaning mazmunini buzishi yoki uni tushunishni qiyinlashtirishi mumkin. Shu sababli, jins va son moslashuvi o'rganuvchilar uchun muhim grammatik muammo sifatida qaraladi va bu muammoni bartaraf etish uchun o'qituvchi jadvallar, rangli kodlash usuli hamda kichik jumlar bilan ishlash orqali mavzuni o'quvchilarga aniq va tushunarli tarzda o'rgatish mumkin. Xususan, jadvallar va rangli kodlash usulida o'qituvchi va o'quvchilar har bir sifat va ot uchun, jins hamda son shakllari jadvalga yozishadi va ular uchun turli ranglardan foydalanishlari mumkin. Masalan, femminile birlik shakli bir rangda, ko'plik shakli esa boshqa rangda ko'rsatiladi. Bu visual eslatma vaifasini bajarib, so'zlarni alohida emas, balki o'zaro bog'liq holda o'zlashtirishga yordam beradi; natijada xatolar soni kamayadi va ma'lumot xotirada tezroq saqlanadi. Shuningdek, kichik jumlar bilan mashq qilishda har bir o'quvchi dars jarayonida 5-10 ta yangi jumla tuzib, jins va sonlarni to'g'ri moslashtirishga e'tibor qaratish orqali grammatik qoidalarni amaliyotda tezroq o'zlashtirishi mumkin.

**Fe'llar va zamonlar.** Yana bir asosiy muammolardan biri italyan tilidagi fe'llarni zamonlarga moslashtirish hamda to'g'ri va noto'g'ri fe'llarni farqlash va tushlash bilan bog'liqdir. Italyan tilida fe'llar ko'plab zamonlar (presente, future, passato, condizionale, congiutivo) va shaxslar bo'yicha o'zgaradi. Bu jarayon o'rganuvchilar uchun murakkab va chalkash bo'lishi mumkin. To'g'ri fe'llar (verbi regolari) odatda aniq qoidalarga amal qiladi, ammo ularni son va shaxsga moslashtirishda e'tibor talab etiladi. Masalan, parlare (gapirmoq) fe'li hozirgi zamon (presente)da “-are” qo'shimchasi olib tashlanadi va asos “parl-“ ga quyidagi qo'shimchalar qo'shiladi: Io parlo (men gapiraman), Tu parli (sen gapirasan), Lui/Lei parla ( u gapiradi) va shunga o'xshash boshqa shaxslar uchun ham. Noto'g'ri fe'llar (verbi irregolari) esa qoidalarga to'liq amal qilmaydi va har bir fe'l alohida tuslanishni talab qiladi. Masalan, andare (bormoq) fe'li hozirgi zamonda

quyidagicha tuslanadi: Io vado (men boraman), Tu vai (sen borasan), Lui/Lei va ( u boradi). Ba'zi noto'g'ri fe'llar kelasi zamonda (future) to'g'ri fe'l sifatida tuslanadi, bu esa o'rganuvchilarni chalg'itadi. Shu jihatdan, fe'llarni noto'g'ri tushlash yoki zamon va shaxs qo'shimchalarini to'g'ri qo'llay olmaslik jumla mazmunining noto'g'ri bo'lishiga va muloqotning tushunarsiz bo'lishiga olib kelishi mumkin. Ushbu muammo bilan kurashishda dictogloss usulidan foydalanish mumkin. Ushbu metod o'qituvchi tonidan o'qilgan qisqa matnni o'quvchilarning eshitib, tushunib, qayta tiklashga asoslangan interaktiv ta'lim usulidir. Bu usul orqali o'quvchilar fe'llarning tuslanishini aniqlash va ularni to'g'ri qo'llashni samarali o'rganishlari mumkin. Bunda o'qituvchi matnni o'qiydi, o'quvchilar esa undagi fe'llarni ajratib, ularning qaysi shaxs va zamonda tuslanganini birgalikda tahlil qiladilar. Bu jarayon ularning bilimlarini mustahkamlash va fe'l shakllarini tez eslab qolishga yordam beradi. Kuzatishlar natijasiga ko'ra, ushbu metod italyan amaliy darsida qo'llanganda o'quvchilar fe'llarni kontekstning ma'nosi orqali qaysi zamonda ekanligini farqlab olishdi va fe'llarni ajratib, turli zamon va shaxslarga moslab birgalikda turli gaplar tuzish orqali xotirada yaxshi saqlashdi. Bundan tashqari, mustaqil tarzda shug'ullanish uchun o'quvchilarga fe'l jadvallarini tuzish va ularni muntazam ravishda takrorlash tavsiya etiladi. Har bir shaxs va zamon uchun fe'llarni jadvalga joylashtirish, shuningdek noto'g'ri fe'llarni alohida belgilar bilan ajratish ularni visual tarzda tezroq eslab qolishga yordam beradi.

**Talaffuz muammolari.** O'rganuvchilar duch keladigan muhim va ahamiyatli qiyinchiliklardan bittasi – talaffuzdagi murakkabliklar, ya'ni tovushlarni bir- biridan farqlashdir. Italyan tilida ba'zi harflar talaffuzga qarab turli tovushlarni hosil qiladi va ko'plab o'rganuvchilarni chalg'itadi. Masalan, harf “c” ba'zan “ch” sifatida talaffuz qilinadi (cena- chena), ba'zan esa “k” sifatida (casa-kasa). Harf “g” ham shunga o'xshash: gioco-jioco, gatto-gatto tariqasida talaffuz qilinadi. Ingliz va o'zbek tillarida bunday tovushlar kam uchrashi sababli o'rganuvchilar ko'pincha talaffuzda xatoliklarga yo'l qo'yadilar, bu esa tilni tushunish va gapirish qobiliyatiga bevosita ta'sir qiladi. Richards va Rodgers (2001) ma'lumotiga ko'ra, audio-lingual metod chet tilini o'rgatishda tinglash, taqlid va takrorlash orqali grammatika va talaffuz tuzilmalarini o'zlashtirishga asoslangan pedagogik yondashuv bo'lib, u strukturistik lingvistika va xulq-atvor nazariyalaridan ilhomlanadi. Ushbu metodda o'rganuvchilar til dialoglari va drill mashqlarini muntazam bajargan holda til tuzilmalarini avtomatik ravishda o'zlashtiradilar, bu esa ayniqsa talaffuz va og'zaki ko'nikmalarni shakllantirishda samarali hisoblanadi. Masalan, italyan tilidagi audiokitoblar, qo'shiqlar va podkastlarni tinglash, so'zlarni baland ovozda qayta-takrorlash orqali tovushlarni tabiiyroq eslab qolish va to'g'ri talaffuz qilishni o'rganish mumkin. Shu bilan birga, YouTube va interaktiv darsliklardagi talaffuz mashqlari yordamida til, lab va og'iz harakatlarini kuzatib to'g'ri talaffuz qoidalarini yanada mukammal o'rganish mumkin.

**Xulosa.** O'rganilgan masala yuzasidan quyidagi xulosaviy fikrlarni bildirish maqsadga muvofiqdir:

Italyan tilini o'rganish jarayonida o'quvchilar bir qator muammolarga duch kelishadi: jumladan, jins va son moslashinuvi, fe'llarni to'g'ri tushlashva talaffuzdagi noaliqliklar. Ushbu muammolarni jadvallar, rangli kodlash usuli va kichik jumlar bilan mashqlar, dictogloss metodikasi hamda audio-lingual va interaktiv video darslar orqali bartaraf etish mumkin. Bu orqali o'rganuvchilar

grammatika va talaffuzni amaliyotda tezroq o'zlashtiradi, natijada italyan tilida muloqot qilish va nutqni tushinish qobiliyatlari sezilarli darajada yaxshilanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Naddeo, C. M., Orlandino, E. Dieci lezioni di italiano (2019)
2. Serianni, L. Grammatica italiana. Zanichelli (2010)
3. Richards, J. C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press. (2001)
4. Wajnryb. R. Grammar Dictation. Oxford University Press. (1990)

